

„O‘ZBEKISTONDA TIBBIYOT TARIXINING BOSQICHLARI: QADIMGI
DAVRLARDAN ZAMONIMIZGACHA”

Xabibullayev Sirojiddin Ziyodulla o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Davolash ishi 1-bosqich talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekistonda tibbiyot fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Qadimgi davrlardan boshlab xalq tabobati, dorivor o‘simliklardan foydalanish an‘analari hamda Abu Ali ibn Sino singari allomalar ilmiy merosi o‘rganilgan. Mustaqillik yillarida tibbiyot tizimining modernizatsiyasi, sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda tibbiyot tarixining uzviy davomiyligi va bugungi kunda uning xalq salomatligini ta‘minlashdagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Tibbiyot tarixi, O‘zbekiston, qadimgi tibbiyot tarixi, tabobat an‘analari, Abu Ali ibn Sino, o‘rta asr allomalari, sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy meros, tibbiyot rivoji, xalq tabobati, ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy klinikalar, sog‘lom turmush tarzi, mustaqillik davri tibbiyoti, tibbiy islohotlar, dorivor o‘simliklar, tabobat tarixi, sog‘liqni saqlashdagi yangiliklar

Аннотация

В статье анализируются этапы становления и развития медицинской науки в Узбекистане. С древнейших времен изучается народная медицина, традиции использования лекарственных растений, а также научное наследие таких учёных, как Абу Али ибн Сино. Приводятся сведения о модернизации медицинской системы в годы независимости, реформах в сфере здравоохранения и внедрении современных технологий. Результаты исследования подчеркивают преемственность истории медицины в Узбекистане и её значение в обеспечении здоровья населения сегодня.

Ключевые слова: История медицины, Узбекистан, история древней медицины, медицинские традиции, Абу Али ибн Сино, средневековые учёные, система здравоохранения, медицинское наследие, развитие медицины, народная медицина, научные исследования, современные клиники, здоровый образ жизни, медицина периода независимости, медицинские реформы, лекарственные растения, история медицины, новости здравоохранения

Abstract

This article analyzes the stages of the formation and development of medical science in Uzbekistan. From ancient times, folk medicine, traditions of using medicinal plants, and the scientific heritage of such scientists as Abu Ali ibn Sino are studied. Information is provided about the modernization of the medical system during the years of independence, reforms in the health sector, and the introduction of modern technologies. The results of the study highlight the continuous continuity of the history of medicine in Uzbekistan and its importance in ensuring public health today.

Keywords: History of medicine, Uzbekistan, history of ancient medicine, medical traditions, Abu Ali ibn Sino, medieval scientists, health care system, medical heritage, medical development, folk medicine, scientific research, modern clinics, healthy lifestyle, medicine of the independence period, medical reforms, medicinal plants, history of medicine, news in health care

Tibbiyot, tabobat — kishilar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui.

Zamonaviy Tibbiyotning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichi ko‘hna tarixning turli davrlaridagi dunyoqarashlarni o‘z ichiga oladi. Ma‘lumki, turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olish haqidagi bilimlar asosi qadimdan kishilarning tajriba va kuzatishlariga bog‘liq bo‘lgan.

Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko‘tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokratning muhim o‘rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta‘sirini o‘rganish,

xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga doir asarlari to XVI-asrgacha Tibbiyotning asosi bo'lib xizmat qildi.

O'rta asrda Abu Ali ibn Sino Tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning „Al Qonun fit-tib (“Tib qonunlari”) asari asrlar osha jahon tabobatida asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda. Bu asar Tibbiyotning asosiy sohalari: anatomiya, fiziologiya, patologiya, terapiya, dorishunoslik, gigiyena va boshqalarni qamrab olgan. Isitma, o'lat, chechak, qizamiq kabi yuqumli kasalliklarni qandaydir ko'zga ko'rinmas jonivorlar qo'zg'atishi to'g'risida fikr yuritgan. U buyrak toshlarini operatsiya qilib olib tashlash, traxeotomiya qilish, jarohatlarni davolash usullari haqida yozadi. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan eng muhim asarlaridan yana biri „alAdviya alqalbiya („Yurak dorilari“)dir. Unda olim yurak kasalligida qo'llanadigan (o'zi topgan) dorilar haqida yozadi.

Yevropada uyg'onish davrida tibbiyot yangidan ravnaq topdi. XVI-asrda ko'pgina fanlar, ayniqsa, Tibbiyot, fizika va kimyoning rivojlanishi kasalliklarni davolash, sababini bilishda bu fanlarning qonunlaridan foydalanish imkonini berdi. Xirurgiyada, ayniqsa, jarohatlarni davolashda yangi usullar joriy qilindi. Anatomiyaning asoschisi A. Vezaliy murdani yorib tekshirish bilan odam organizmining tuzilishi va organlar faoliyatini ilmiy jihatdan aniq asoslab berdi. Ingliz vrachi V. Garvey qon aylanish sistemasi haqida asar yaratib, tibbiyotda yangi bo'lim — fiziologiyaga poydevor qo'ydi. Fizikaning taraqqiyoti natijasida bu davrda mikroskop kashf etiddi va undan Tibbiyotda foydalanila boshlandi. Gollandiyalik olim Antoni Levenguk tomonidan mikroskopiyaning rivojlantirilishi mikrobiologiya sohasining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash ishiga sil kasalligini keltirib chiqaruvchi batsillani kashf qilgan nemis olimi Robert Kox (1843-1910) ulkan xissa qo'shdi. U epidemiyalarga qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqdi va dori-darmonlar

yaratdi. Rus olimi, Nobel Mukofati laureati I. Mechnikov esa organizmlarni mikroblardan himoya qilish haqida yangi ta'limotni yaratdi. 1880-yilda nemis olimi K. Eber ichterlama, 1884-yilda F. Lyofler bo'g'ma tug'diruvchi mikrobn topdi. Nemis olimi R. Virxov hozirgi zamon patalogik anatomiya asoslarini yaratdi. 1875-yilda rus olimi F. A. Lesh amyoba dizenteriyasini tug'diruvchi mikrobn aniqladi.

Fizika sohasidagi kashfiyotlar ham tibbiyotga yordam berdi. Maksvellning elektromagnit to'lqinlari haqidagi

nazariyasidan kelib chiqib, 1895-yilda nemis fizigi Vilgelm Konrad Rentgen har xil buyum, narsalardan turlicha o'tuvchi ko'rinmas nurlarni kashf etdi. Nurlarning

kelib chiqishi va qanday paydo bo'lishi olinga ma'lum emasdi va ularni „X nurlar“ deb atadi. Ana shu kashfiyotga asoslangan va olimning nomi bilan „Rentgen“ deb atalgan apparat yaratildi. Endi shifokorlar ichki jarohatlarni, suyak sinishlarini ko'rish mumkin edi. Bu kashfiyot uchun fiziklar orasida birinchi bo'lib Rentgenga Nobel mukofati berildi.

Kimyo sohasidagi kashfiyotlardan ham tibbiyotda unumli foydalanildi. Sanoatda sovun olinishining kashf etilishi, undan kasalxonalarda, ayniqsa, jarrohlar tomonidan foydalanish operatsiyalar paytida infeksiya xavfini kamaytirdi.

XX asr boshlarida biologiya fani ham shiddat bilan rivojlandi. 1922 yilda fiziolog olimlar Jon Makleod va Frederix Banting ko'plab tajribalar jarayonida o't pufagi gormoni bo'lgan insulinni olishga muvaqqat bo'lishdi. Qandli diabet kasalligi endi bedavo dard bo'lmay qoldi. Insulinning kashf etilishi XX-asrning eng buyuk kashfiyotlaridan deb tan olindi. Jon Makleod va Frederik Banting fiziologiya va tibbiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Sterilizatsiya (lotincha-toza)-tibbiyot va biologiyada turli moddalar, bog'lov materiallari, oziq-ovqat mahsulotlarini zararli mikroorganizmlardan butunlay tozalash.

Batsilla-kasallik qo'zg'atuvchi va tarqatuvchisi mikroorganizm (mikrob-tayoqcha) Pasterlash (muallif shaxs Paster nomidan olingan) - zararli mikroorganizmlarni o'ldirish uchun suyuqlikni 60-80 C gacha qizdirish va ularni tezda sovitish.

Анестезија

Og'riq sezmaslikning juda oddiy usuli, masalan, narkoz va spirtli ichimliklar, uzoq vaqtdan beri mavjud, ammo anesteziyaning sifat darajasi 1848 yilga borib taqaladi. Aynan 1848 yilda amerikalik jarroh Geri Bigelou birinchi bo'lib efir va xloroform amaliyotini tibbiy maqsadlarda qo'lladi. Natijada muolajalar ancha kamog'riqli bo'lib qoldi va jarrohlik operatsiyalarining sezilarli ko'payishida rol o'ynadi

Qadimiy Misr jahon madaniyatida chuqur iz qoldirgan. Astronomiya, jug'rofiya, matematika fanlari bilan birga misrdagilar tabobatga oid bilimlarga ham ega bo'lishgan. Davolash usullari bundan 4000 eramizdan oldingi yil ibodatxona tabobati sifatida pay do boigan. Misrdagi koxin- tabiblar katta obro'-e'tiborga ega bo'lishgan. Misrda shifokor-jarroh, jarrohlar orasida ko'z operatsiyasini qiladigan jarroh, tishni davolash va tishga plomba qo'yish bilan shug'ullanadigan jarrohlar boigan. Misr tabobati haqidagi malumotlar, qadimgi Misr madaniyati bilan birga, tobutdagi, piramidalardagi va boshqa qurilish ishlarda ieroglif yozuvlar hisoblanadi, lekin birinchi navbatda papirusda yozilgan turli xil kasalliklarni ta'riflari, simptomlari aniqlash va davolash usullari, reseptlar ko'rsatilgan to'plamlar bo'lgan.

Gor — Qadimiy Tabobatdan saqlanib Misr tabobat xudosi qolingan papirus 1850 yil eramizdan oldin yozilgan eng eski papirus Kaxunskiy hisoblanadi va unda ayollar kasalliklari keng yoritgan. 1550 eramizdan oldingi yil Luksorda topilgan Smit papirusi yozilgan, unda jarrohlik, jarohatlarni davolash va anatomiyaga oid ma'lumotlar bor, bundan tashqari Fivaxda topilgan Ebers papirusi, tana kasalliklariga taaluqli. Smit Papirusi bizning davrimizgacha saqlanib qolinmagan va mashhur shifokor Imxotepga tegishli bo'lgan eng eski papirusni nusxasi hisoblanadi. Misr tabobatining papiruslarini ta'rif o'zgacha bo'lib, kasallikning turli xil nuqtai nazarlarini ko'rsatadi. Shunday qilib Kaxun papirusi o'zining diqqatini davolash empirik qoidalariga, dorilarni tasnifiga qaratgan va xech qanday diniy sababni o'zida saqlamagan.

Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati Abu Ali ibn Sino (Abu al-Husayn ibn Abdulla ibn Xasan ibn Sino) (lotin tilida — Avisenna) o'rta asrning eng katta shifokori va jahon

tarixida eng mashhur shifokorlardan biri. U Buxoro yonidagi Afshona qishlog'ida (keyinchalik Isfara) 980 yilda tug'ilgan. Uning otasi Abdulla ibn Hasan Buxoro amiriga o'lpon yig'uvchi bo'lib xizmat qilardi. Ibn Sino o'zining tarjimai holida: "Mening otam Balxdan edi va u yerdan Buxoroga somoniy Nuh ibn Mansur boshqarayotgan paytda keldi va devonxonada ishladi. Unga Buxoro atrofidagi tumanlarning markazlaridan biri Hurmaysanni boshqarish taqdim etildi. Afshonaga yaqin joylashgan qishloqdan Sitara - yulduz ismli mening onamni xotinlikka olgan. U yerda birinchi men keyin mening ukam tug'ilgan" — deb yozgan.

Ibn Sino fors-dariy tilida so'zlashuvchi Markaziy Osiyolik edi. U ko'pincha bu tilda "qalbga tinchlik berish" uchun to'rtlik she'rlar yozgan. Ibn Sino tibbiyotga juda erta qiziqish uyg'otdi va bu soha uning qiziqishlarining muhim qismiga aylandi. 12 yoshga to'lmasdan oldin, Ibn Sino o'sha davr faylasufi va shifokori Abu Salah al-Masihiyning maslahati bilan uning ta'limotini qabul qildi. "Keyin men o'zimni tibbiyotga bag'ishladim va tibbiy kitoblarni o'qiy boshladim", deb yozadi u o'zining avtobiografiyasida. Buxoro amirining kasalligi yoki Ibn Sino uni qanday davolagani haqida hech qanday ma'lumot yo'q, ammo davolash shunchalik samarali bo'ldiki, ajoyib Buxoro amiri Nuh ibn Mansur yana bir yil hukmronlik qildi. Minnatdorchilik sifatida Ibn Sino Somoniylar kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oldi. Buxoro kutubxonasi o'z davrining eng katta va eng mashhur kutubxonasi hisoblangan.

Qadim-qadimdan insoniyat o'simliklardan shifobaxsh vosita sifatida foydalanib keladi. Foydali o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlar avloddan-avlodga, qabiladan-qabilaga faqat og'zaki tarqalgan. Davlatlar o'rtasida savdo-sotiq va boshqa munosabatlar o'rnatilgandan so'ng, ana shu davlatlarda foydali o'simliklar turlari ko'paya bordi. Yozuv paydo bo'lganidan keyin foydali shifobaxsh o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlar yozma ravishda tarqala boshladi. Qazilmalarda Suriya shoxi Assurbanipal (Sardana'al, eramizdan avvalgi 668 yil) kutubxonasidagi so'olga mixxat bilan yozilgan 22000 jadval to'lgan, shundan 33 tasida dorivor mahsulotlar qayd qilingan. 1Hatto o'sha davrda Suriyada dorivor o'simliklar ekiladigan maydonlar ham

bo'lgan. Misrda esa shifobaxsh o'simliklar bundan ham ilgari ekila boshlangan. Masalan, eramizdan 2000 yil avval Misrda kana-kunjut ekilgan. Hozirga qadar saqlanib qolgan dorivor o'simliklar haqidagi ma'lumotlar asosan qadimiy yunon adabiyotlarida uchraydi. Yunonlar o'zlarida yetishtiriladigan dorivor o'simliklardan tashqari Misr, Eron va boshqa Osiyo mamlakatlaridan keltirilgan dorivor mahsulotlardan ham foydalanishgan. Mashhur vrachlar Buqrot (Gipokrat), Arastu (Aristotel) va ularning shogirdi Teofrast, Dioskorid va boshqa olimlarning shuhrati dunyoga yoyilgan. Buqrot (eramizdan avvalgi 460—377 yillar) bemorlarni parhez ovqatlar bilan davolagan. U yozgan kitoblarda dorivor o'simliklarning 236 turi tafsiflangan[1. B. 375].

Arastu va uning shogirdi Teofrast (eramizdan to'rt asr oldin) ko'pgina o'simlik turlarini tahriflash bilan birga ularning foydali xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tishgan.[2. Internet nashri].

O'z davrining atoqli vrachi Dioskorid (eramizning I asrida yashagan), «Materia medica» nomli mashhur kitobida juda ko'p dorivor o'simliklarni rasmlari bilan birgalikda tahriflab bergan. Lotin tiliga tarjima qilingan bu kitobdan Yevropalik vrachlar XVI asrgacha qo'llanma sifatida foydalanib kelganlar. Ko'hna Rimda Galen va Pliniy Starshiy farmakognoziya bilan uzoq vaqt shug'ullanganlar. Vrach Galen (eramizning 130-yillarida tug'ilgan) farmatsiya va tibbiyot sohasida bir qancha kitoblar yozgan. U o'z kitoblarida 304 ta dorivor o'simlik, 80 ta hayvon va 60 ta mineral moddadan olinadigan dorilarni tahriflagan. Galen o'simlik va hayvon organlaridan tayyorlangan (tarkibida ta'sir etuvchi modda bo'lgan) dori turlari bilan bemorlarni davolashni birinchi bo'lib taklif etadi. Bu dorilar hozirgi kunda ham «Galen preparatlari» nomi bilan yuritiladi. Galenning tibbiyot va farmatsiya sohasida yozgan asarlari XIX asrgacha katta ahamiyatga ega bo'lib keldi. O'simliklarning foydali xususiyatlarini qadim zamonlarda ham halqimiz bilgan va ulardan turli xastaliklarni davolash uchun foydalangan. Shifobaxsh o'simliklardan foydalanish o'zining qadimiy zaminiga ega. Bu zamin qadimiy hind tabobatida boshlangan desak xato qilmaymiz. Hindiston florasi o'simliklarga juda boy bo'lib, unda ko'plab dorivor o'simliklar ham

o'sadi. Shuning uchun bu yerda bemorlar asosan Hindistonning o'zida o'sadigan dorivor o'simliklar bilan davolanganlar. Hind tabobati dori-darmonlar haqidagi ma'lumotlarni ulug' hakim Sushrut (m. a. IV asr) «Yajur-veda» nomli mashhur kitobida 700 ta shifobaxsh gilyohlarga tavsif bergan. U kitobda nomi keltirilgan dorivor gilyohlardan Hind tabobatida hozir ham foydalanib kelinmoqda. Hind tibbiyoti Tibet, Xitoy, Yaponiya, keyinchalik Mo'g'iliston va Buryatiyaga yoyila boshlaydi. Bu davlatlardagi mahalliy dorivor o'simliklar soni Hindistondan keltirilgan o'simliklar hisobiga orta bordi. Osiyo davlatlarida qadimdan foydalanib kelinayotgan o'simliklar, hayvon mahsulotlari va mineral moddalarni bir tizimga solishda arab vrachlarining xizmati katta bo'ldi. Ular tibbiyot sohasida yozilgan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish bilan birga qayta nashrdan chiqardilar hamda Hindistondagi dorivor mahsulotlar va moddalarni arab tibbiyotida qo'llay boshlashdi. Irsiy kasalliklarni o'rganish tibbiyot genetikasining paydo bo'lishiga olib keldi. Immunologiyaning rivojlanishi immunologik o'zgarishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni o'rganadigan immunopatologiyaga asos bo'ldi. K. Landshteynerning izogemagglyutinatsiya qonuni (1900—01), Ya. Yanskiy tomonidan odam qoni tarkibi jihatidan 4 guruhga bo'linishi kashf etilishi (1907) Tibbiyot amaliyotida qon quyishdan keng foydalanishga imkon berdi. Bu davrda Tibbiyotga Pirkening sil kasalligini aniqlaydigan allergik reaksiyasi (qarang Pirke reaksiyasi) va allergiya termini kiritildi. 1939-1940-yillarda mikroorganizmlarga qarshi kurashning kuchli vositalaridan bo'lgan antibiotiklar ixtiro qilindi va amalda qo'llanila boshladi. Vitaminlar haqidagi ta'limot ham rivoj topdi. Ichki sekretiya bezlarining tuzilishi va funksiyasini o'rganish tufayli endokrinologiya mustaqil fanga aylandi, u rivojlanib, gormonoterapiya va gormonal regulyatsiya masalalarini xam o'rganishga kirishildi. 20-asr boshlarida o'smalar haqidagi fan — onkologiya shakllandi. Keyingi tadqiqotlarda o'smalarning, chunonchi rakning virusli va kanserogen shakl nazariyalari yuzaga keldi. Mikrobiologiya tez sur'atlar bilan rivojlandi: silga qarshi vaksina tayyorlandi (1921, A. Kalmet va Sh. Geren). Keyingi izlanishlar natijasida poliomiyelit, difteriya va boshqa infeksiyon kasalliklarni bartaraf qiladigan vaksina, zardoblar ixtiro qilindi; rikketsioz, leptospirozlar haqidagi ta'limot

ishlab chikidsi. D. I. Ivanovskiyning filtrlanuvchi viruslarni ixtiro qilishi (1892) va Niderlandiya botanigi M. Beyerinkning keyingi tadqiqotlari virusologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi.

2017 yil 23 iyun kuni Toshkent shahrida O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi, tegishli vazirlik va idoralar hamkorligida "Mamlakatimiz zamonaviy tibbiyoti rivojida xususiy sektorning roli" mavzuida davra suhbatlari tashkil etildi. Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosi hamda bu borada O'zLiDePning sa'y-harakatlarini atroflicha muhokama qilishga bag'ishlandi.

Qayd etilganidek, sog'liqni saqlash tizimida xususiy sektorni yanada rivojlantirish, jumladan, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga sifatli xizmat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi 6 yilda mamlakatimizda xususiy tibbiyot muassasalari soni 2 barobar ko'payib, 3,5 mingtaga yetdi. Ularni yuqori texnologiyali tibbiyot texnikasi bilan jihozlash darajasi 3 barobar oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydarov Q.H., Hojimatov Q.H. O'zbekiston o'simliklari. – Toshkent, 1992. - 241 b. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "SCIENCE, EDUCATION AND INNOVATION: INTEGRATION OF NATURAL SCIENCES AND ECOLOGICAL ASPECTS OF FOOD PRODUCTS", MAY 23-24, 2025 375.
2. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-ali-ibn-sina>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tibbiyot>
4. <https://kun.uz/60097671>
5. TIBBIYOT TARIXI. Xamida Elemesovna Rustamovna, Nell Kamilova Stojarova Sharafat Abdumajitovna Abdurashidova, Qurbanoy Chorievna Nurmamatova. TOSHKENT, "O'Z KITOBSAVDO" 2020.

6.

https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0098/98_i_20250605_145502_

3.3.

7. 10-sinf Jahon tarixi Shuhrat Ergashev, Bekzod Xodjayev, Jamshid Abdullayev, Nurhayot Hakimov. Respublika ta'lim markazi Toshkent, 2023.